Annotatsiya. Ushbu maqolada global kompaniyalarda raqamli menejment tizimining mohiyati, uning samaradorlik ko'rsatkichlari va xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan baholash mezonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli transformatsiya, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, avtomatlashtirish darajasi va kiberxavfsizlik ko'rsatkichlari asosiy samaradorlik mezonlari sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro kompaniyalar misolida raqamli menejmentning iqtisodiy va tashkiliy natijalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari raqamli boshqaruv orqali ish samaradorligini 20–30% ga oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli menejment, samaradorlik ko'rsatkichlari, raqamli transformatsiya, innovatsiya, avtomatlashtirish, ma'lumot tahlili, global kompaniyalar.

Abstract. This article analyzes the essence of the digital management system in global companies, its performance indicators, and evaluation criteria used in international practice. The study considers digital transformation, data-driven decision-making, the level of automation, and cybersecurity indicators as the main performance criteria. Also, the economic and organizational results of digital management were studied using the example of international companies. The research results show that it is possible to increase work efficiency by 20-30% through digital management.

Key words: digital management, performance indicators, digital transformation, innovation, automation, data analysis, global companies.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность системы цифрового менеджмента в глобальных компаниях, показатели ее эффективности и критерии оценки, используемые в международной практике. В исследовании в качестве основных критериев эффективности рассматривались показатели цифровой трансформации, принятия решений на основе данных, уровня автоматизации и кибербезопасности. Также были изучены экономические и организационные результаты цифрового менеджмента на примере международных компаний. Результаты исследования показывают, что с помощью цифрового управления можно повысить эффективность работы на 20-30%.

Ключевые слова: цифровой менеджмент, показатели эффективности, цифровая трансформация, инновация, автоматизация, анализ данных, глобальные компании.

KIRISH

XXI asrda iqtisodiyotni boshqarish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni keskin oshdi. Raqamli menejment kompaniyalarga operatsion xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni tez va aniq qabul qilish imkonini beradi. Global miqyosda faoliyat yurituvchi yirik korporatsiyalar — Amazon, Microsoft, IBM, Siemens, Google va boshqalar — o'z boshqaruv tizimlarini to'liq raqamli transformatsiya qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida sezilarli o'sishga erishgan. Shu sababli, raqamli menejment samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlarni o'rganish nafaqat nazariy, balki



amaliy ahamiyatga ham ega. Ushbu tadqiqotning asosiy vazifasi — yirik xalqaro korporatsiyalar tajribasiga tayangan holda raqamli boshqaruvning samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar majmuasini shakllantirish va ularning amaliy qo'llanish jihatlarini o'rganishdan iborat.

Globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida raqamli boshqaruv korxonalarning kundalik faoliyatidan ajralmaydigan jarayonga aylanmoqda. Biznes faoliyatiga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish korxonalarga tezkor va aniq qarorlar qabul qilish, xarajatlarni kamaytirish hamda samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Shu sababli, dunyo miqyosidagi yetakchi kompaniyalar raqamli menejmentni faqat texnik yangilanish emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida ko'rmoqdalar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli menejment sohasida olib borilgan xalqaro va mahalliy tadqiqotlar tahlili ushbu yo'nalishning jahon iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etib borayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishi tashkilotlarning ishlash modeli, qaror qabul qilish jarayoni, resurslar taqsimoti va raqobatbardoshlik darajasini tubdan o'zgartirmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli menejmentning mohiyati, uning samaradorlik ko'rsatkichlari va transformatsiya mexanizmlari keng yoritilgan bo'lib, tadqiqotchilar turlicha nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalarni taklif etadilar.

Xorijiy olimlardan Porter va Heppelmann raqamli transformatsiyani kompaniyalarning raqobat strategiyasini qayta shakllantiradigan asosiy omil sifatida baholaydilar [1]. Ularning fikriga ko'ra, sensor texnologiyalari, bulutli platformalar va internetga ulangan intellektual mahsulotlar kompaniyaning qiymat zanjiriga yangi funksional imkoniyatlarni olib kiradi va raqobat afzalliklarini qayta belgilaydi. Brynjolfsson va McAfee esa raqamli inqilobda IT-infratuzilma, avtomatlashtirish, kraudsorsing va to'plangan ma'lumotlar (Big Data) kompaniyalarda boshqaruv falsafasini o'zgartirib, tezkor qaror qabul qilish va innovatsion faoliyatni kuchaytirishini ta'kidlaydilar [2].

OECD hisobotlarida transmilliy korporatsiyalarda raqamli transformatsiyaning asosiy drayverlari sifatida avtomatlashtirilgan operatsion modellar, kiberxavfsizlik siyosati, ma'lumotlarni integratsiyalash va raqamli investitsiyalarni baholash metodologiyasi ko'rsatilgan [3]. Xususan, ushbu hisobotlarda raqamli loyihalar samaradorligini aniq baholash uchun ROI, operational efficiency, digital intensity kabi indikatorlardan foydalanish muhim ekanini ta'kidlanadi. Siemens va Microsoft kompaniyalari e'lon qilgan texnologik hisobotlar esa raqamli boshqaruvning ishlab chiqarishdagi kamchiliklarni qisqartirish, energiya tejamkorligini oshirish va xizmatlar barqarorligini ta'minlashda eng samarali vosita ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi [4], [5].

Mahalliy olimlar tomonidan ham raqamli menejment masalalari dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida ko'rib chiqilmoqda. Xamidova O'zbekistonda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish jarayonidagi asosiy muammolar sifatida kadrlar raqamli kompetensiyalarining yetishmasligi, infratuzilmaviy cheklovlar va texnologik modernizatsiya sur'atining pastligini ta'kidlaydi [6]. Yuldasheva S. N. raqamli iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilib, raqamli strategik moslashuv, innovatsion tashabbuslarni rag'batlantirish va texnologik integratsiyani samaradorlikning asosiy omili sifatida belgilaydi [7]. Atajanov A. A. esa operatsion menejmentni raqamlashtirish orqali logistika va ta'minot zanjirida resurslarning optimal taqsimlanishi, xarajatlarni qisqartirish va prognozlash tizimlarini takomillashtirish mumkinligini ko'rsatadi [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati raqamli menejmentning afzalliklari, uning texnik imkoniyatlari va iqtisodiy samaradorligini yoritadi. Biroq ko'plab ishlarda raqamli boshqaruvni kompleks indikatorlar orqali baholash modeli to'liq ishlab chiqilmagan, shuningdek, global kompaniyalar tajribasi bilan mahalliy islohotlarni solishtirma tahlil etishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda global kompaniyalar amaliyoti asosida raqamli menejmentning samaradorlik ko'rsatkichlari tizimli tahlil qilinadi, DMI indikator modeli orqali raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish, data-driven qaror qabul qilish, kiberxavfsizlik va investitsion samaradorlik kabi omillarning o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinishi taklif etiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba va mahalliy sharoit solishtirilib, raqamli menejmentning milliy iqtisodiyot uchun moslashtirilgan strategik modeli ishlab chiqiladi. Bu jihat maqolani mavjud ilmiy adabiyotlardan farqli qilib, unga yangi ilmiy qiymat bag'ishlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlarga tayangan:

- Tizimli tahlil usuli: raqamli menejmentni tashkil etuvchi elementlar — texnologiyalar, ma'lumotlar, inson resurslari va xavfsizlik omillari — o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.
- Qiyosiy tahlil: Amazon, Siemens, Microsoft va IBM kompaniyalarining raqamli boshqaruv modellarini solishtirish orqali samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlangan.
- Iqtisodiy hisoblash: ROI (Return on Investment) va avtomatlashtirish tejamkorlik ko'rsatkichlari formulalari asosida iqtisodiy natijalar baholandi.



• Empirik yondashuv: OECD, World Economic Forum va Harvard Business Review ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Tahlil jarayonida raqamli menejment indikatorlari kompleks baholash modeli sifatida quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$DMI = f(T, A, D, S, R)$$

Bu yerda:

T – transformatsiya darajasi,

A – avtomatlashtirish samaradorligi,

D – ma'lumot tahlilidan foydalanish ulushi,

S – xavfsizlik darajasi,

R – investitsiya qaytimi (ROI).

Raqamli menejment deganda korxona boshqaruv jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirilgan vositalar va avtomatlashtirilgan yechimlardan foydalanishni nazarda tutuvchi yondashuv tushuniladi. Bunday boshqaruv modeli faoliyat samaradorligini oshirish, ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishni jadallashtirish hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Digital platformalar va analitik tizimlar tashkilotlarga operatsion jarayonlarni tartibga solish, xodimlar yuklamasini kamaytirish va strategik maqsadlarga tezroq erishish imkonini yaratadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida raqamli menejmentni joriy etish bir nechta asosiy vazifalarni hal qilishni taqozo etadi. Muallif tomonidan quyidagilar belgilab olindi:

Raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashish jarayonida korxona boshqaruv tizimida yuz beradigan transformatsion o'zgarishlarni aniqlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Shuningdek, raqamlashtirilgan boshqaruv yondashuvining an'anaviy modeldan qaysi jihatlarida farq qilishini belgilash ham muhimdir.

O'zgarishlarni baholash quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

– yangi texnologiyalarni joriy etish va ularning mavjud jarayonlar bilan uyg'unlashuvi;

– xodimlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy ish uslubiga moslashtirish;

– korporativ madaniyatni innovatsion yondashuvlarga mos holda qayta shakllantirish. Bunga boshqaruvning yanada moslashuvchan usullarini qabul qilish, innovatsiyalarga e'tibor qaratish va tezkor qaror qabul qilish kiradi.

Raqamli va an'anaviy boshqaruv o'rtasidagi asosiy tafovutlarni belgilashda bir nechta mezonlarga e'tibor qaratiladi. Raqamli boshqaruv geografik cheklovlarni kamaytirib, jamoalarni masofadan turib shakllantirishga imkon yaratadi. Kadrlarga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib, xodimlardan raqamli ko'nikmalarga ega bo'lish kutiladi. Sun'iy intellektidan foydalangan holda raqamli menejmentda real vaqt rejimida tezkor qarorlar qabul qilinishi mumkin, bu esa korxonaning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi. Qaror qabul qilish jarayoni raqamli boshqaruvda ancha jadallashadi — sun'iy intellekt va analitik tizimlar yordamida menejerlar zarur ma'lumotni darhol oladi va sharoitga qarab real vaqtning o'zida qaror shakllantirishi mumkin.

Raqamli oqimlar bugungi davrda an'anaviy tovarlar savdosi hissasidan oshib, dunyoda yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turli mamlakatlar o'zlarining raqamli iqtisodiyotlarini shakllantirib, texnologiyalarni faol joriy etmoqdalar. Turli davlatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish sur'ati bir xil emas, shuning uchun ularni rivojlanish darajasiga qarab to'rt guruhga ajratish mumkin. Ayrim ilg'or mamlakatlar raqamli yechimlarni yaratish va qo'llash bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Ba'zi rivojlanayotgan davlatlar IT sohasini kengaytirish orqali raqamli salohiyatni oshirmoqda. Shu bilan birga, ayrim mintaqalarda infratuzilma yetishmasligi yoki iqtisodiy barqarorlik pastligi sabab raqamlashtirish jarayoni sekin kechmoqda. Eng murakkab holatda bo'lgan mamlakatlar esa siyosiy yoki iqtisodiy cheklovlar tufayli texnologiyalarni keng tatbiq eta olmayapti.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, global kompaniyalar raqamli boshqaruvdan foydalanar ekan, samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi bir qator muhim omillar mavjud.

Raqamli transformatsiya darajasi:

– Siemens kompaniyasida ishlab chiqarish jarayonlarining 85 foizi raqamlashtirilgan.

– Microsoft'da ichki jarayonlarning 90 foizi bulutli texnologiyalar asosida ishlaydi.

Avtomatlashtirish samaradorligi:

– IBM kompaniyasida robotlashtirilgan jarayonlar orqali operatsion xarajatlar 28 foizga kamaygan.

Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar ulushi:

– Amazon strategik qarorlarining 92 foizi ma'lumot tahliliga asoslanadi.

Raqamli xavfsizlik:

– Siemens 2024 yilda kiberhujumlarning 97 foizini muvaffaqiyatli bartaraf etgan.



Investitsion samaradorlik (ROI):

– Raqamli loyihalarning oʻrtacha ROI koʻrsatkichi 25–35 foizni tashkil etgan.

Ushbu natijalar raqamli boshqaruv tizimlarini toʻliq joriy etgan kompaniyalarda samaradorlik sezilarli darajada oshganini koʻrsatadi.

Har bir tech-gigant quyidagi asosiy tamoyillar asosida operatsion menejmentni modernizatsiya qildi:

AI/ML-first - qaror qabul qilish, prognozlash va avtomatlashtirishni AI bilan taminlash;

Cloud va edge arxitektura - ilovalar va maʼlumot infra-strukturasini cloud/edgega koʻchirish, oʻlchamlash va xizmatlar uchun platforma yaratish;

Supply-chain va logistika avtomatlashtirish - robotika, real-time telemetriya, inventarizatsiya optimallashtirish;

Data-driven operatsiyalar va observability - SRE/DevOps, monitoring, APM, real-time analytics;

Xodimlarni qayta malakalash (reskilling) va madaniyat oʻzgarishi - “learn-it-all” madaniyat, no-code/low-code foydalanish.

1-rasm. Operatsion menejmentni modernizatsiyalashda tech-gigant kompaniyalarning asosiy tamoyillari [7].

Kompaniya boʻyicha strategiyalar va amaliy misollar shuni koʻrsatadiki, raqamli boshqaruvning muvaffaqiyatli joriy etilishi har bir korporatsiyaning texnologik imkoniyatlari, ichki infratuzilmasi va boshqaruv madaniyatiga bevosita bogʻliqdir.

NVIDIA — infratuzilma va maʼlumot markazlarini AI fabrikalariga aylantirish boʻyicha yetakchi. Asosiy strategiya: GPU va tezkor hisoblash infratuzilmasini yetkazib berish orqali kompaniya va mijozlarning on-premise hamda hybrid AI-xizmatlarini qoʻllab-quvvatlash, data-centerlarni avtomatlashtirish. Operatsion taʼsir: maʼlumot markazlari arxitekturasini va oʻtkazish qobiliyatining oshishi operatsion samaradorlik va model joylashtirish tezligini kuchaytirdi hamda mijozlar uchun “AI on-prem” imkoniyatlarini kengaytirdi.

Microsoft — ichki IT tizimini “Microsoft Digital” orqali qayta qurish. Asosiy strategiya: Azure va ichki platformalar yordamida xizmatlarni yagona ekotizimga integratsiya qilish, SRE va MLOps amaliyotlarini kengaytirish, xodimlar uchun AI-assisted ish jarayonlarini (Copilot va boshqa asboblari) joriy etish. Operatsion taʼsir: ishlab chiqish va yetkazib berish tsikllarining qisqarishi, xizmatlar uzluksizligini yaxshilash va xodimlar mahsuldorligining oshishi.

Amazon — logistika, ombor va yetkazib berishni avtomatlashtirishda global lider. Asosiy strategiya: robotlashtirilgan omborlar, real vaqt rejimidagi maʼlumotlar tahlili, prognozlash va optimal marshrutlash; AWS orqali ichki va tashqi mijozlarga texnologik xizmatlar koʻrsatish. Operatsion taʼsir: buyurtmalarni yetkazib berish tezligi ortdi, inventarizatsiya aylanishi yaxshilandi va operatsion xarajatlar sezilarli darajada kamaydi.

Apple — taʼminot zanjiri va ishlab chiqarish jarayonlarida AI va infratuzilma boʻyicha yirik investitsiyalar. Asosiy strategiya: AI, ichki ML tizimlari, maxsus chiplar va logistika optimizatsiyasi orqali taʼminot zanjirini aniq boshqarish, vertikal integratsiyani kuchaytirish. Operatsion taʼsir: ishlab chiqarish sifati va yetkazib berish barqarorligi oshdi, prognozlash qobiliyati yaxshilandi, risklarni boshqarish samaradorligi kuchaydi.

Alphabet (Google) — Google Cloud va AI xizmatlarini operatsion boshqaruvga keng joriy etish. Asosiy strategiya: generativ AI va Google Cloud mahsulotlarini ichki jarayonlarga ham, mijoz operatsiyalariga ham integratsiya qilish; cloud infratuzilmasiga katta hajmdagi investitsiyalar kiritish. Operatsion taʼsir: mijozlarga xizmat koʻrsatish sifatining oshishi, infratuzilma xarajatlarini optimallashtirish va ilovalar samaradorligini yaxshilash.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli menejmentning muvaffaqiyatli ishlashi faqat texnologik yangilanishlarga emas, balki korporativ madaniyat va inson kapitalining raqamli kompetensiyalariga ham bog'liqdir. Amazon misolida raqamli menejmentning kuchli jihati — mijoz tajribasini real vaqt rejimida boshqarish; Siemensda esa ishlab chiqarishni optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish yetakchi ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, ayrim muammolar mavjud:

- kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun doimiy investitsiyalar zarurligi;
- xodimlarning raqamli malakasini oshirish bo'yicha treninglar yetarli emasligi;
- raqamli infratuzilmaning muntazam modernizatsiyasiga ehtiyoj yuqoriligi.

Shunga qaramay, raqamli menejment kompaniyalar uchun strategik raqobat ustunligini yaratadi. U biznes modelini moslashtirish, innovatsiyalarni tez joriy etish va yangi bozor imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi.

An'anaviy menejment yondashuvlari tobora raqamli iqtisodiyot talablari oldida samarasiz bo'lib bormoqda. Global raqamli o'zgarishlar tashkilotlarni tez va aniq qarorlar qabul qilishga, mijozlar ehtiyojlariga real vaqt rejimida javob qaytarishga hamda innovatsion g'oyalarni tezkor joriy etishga majbur qilmoqda. Shu bois, zamonaviy menejment strategiyalari quyidagi tamoyillarga asoslanmoqda:

- katta hajmdagi ma'lumotlar tahliliga tayangan holda qaror qabul qilish (data-driven boshqaruv);
- moslashuvchan boshqaruv tizimi (agile management);
- innovatsiyalarni doimiy joriy etish (continuous innovation);
- texnologik integratsiya (AI, IoT, Big Data).

Raqamli iqtisodiyotda qo'llaniladigan asosiy menejment strategiyalari mana shu tamoyillar asosida shakllanmoqda.

1-jadval. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy menejment strategiyalari

№	Strategiya nomi	Mazmuni	Asosiy xususiyatlari	Qo'llanilish doirasi
1	Raqamli transformatsiya strategiyasi	Barcha biznes jarayonlarini raqamlashtirish orqali samaradorlikka erishish.	– Texnologik modernizatsiya – Jarayonlarni avtomatlashtirish	Bank sektori, sanoat korxonalari, sog'liqni saqlash
2	Agile menejment (moslashuvchan boshqaruv)	Tezkor, kichik guruhlar orqali moslashuvchan boshqaruvni ta'minlash.	– Tez qaror qabul qilish – Doimiy takomillashtirish	IT kompaniyalar, startaplar, konsalting tashkilotlari
3	Ma'lumotlarga asoslangan strategiya	Big Data va analitik vositalar asosida qaror qabul qilish.	– Real vaqt rejimida tahlil – Raqamli monitoring	Marketing, chakana savdo, logistika
4	Platformali biznes modeli	Mahsulot va xizmatlarni raqamli platformalar orqali taklif qilish.	– Ikkilamchi foydalanuvchilar tizimi – Raqamli interfeyslar	E-commerce, servis sektori (Uber, Amazon va boshqalar)
5	Innovatsion menejment strategiyasi	Yangi texnologiyalar asosida raqobatbardoshlikni ta'minlash.	– Ilg'or texnologiyalar – Tadqiqot va tajriba asosidagi yondashuv	Telekom, energetika, ishlab chiqarish
6	Mijozga yo'naltirilgan strategiya	Sun'iy intellekt orqali mijoz ehtiyojlarini oldindan aniqlash.	– Personalizatsiya – Mijozga mos mahsulot dizayni	Xizmat ko'rsatish sohasi, elektron savdo
7	Raqamli barqarorlik strategiyasi	Kiberxavfsizlik, uzluksizlik va barqaror IT infratuzilma yaratish.	– Zaxira tizimlari – Xavflarni bashoratlash	Moliyaviy sektor, davlat boshqaruvi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida menejment strategiyalari tashkilotlarning innovatsion rivojlanishini, raqobatbardoshligini va barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [8]. Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonida qo'llanilayotgan strategiyalar bir-biridan farqli yondashuvlarga ega bo'lsa-da, ularning barchasi yagona maqsadga — tashkilotning samaradorligini oshirish va bozor talablariga tezkor moslashuvni ta'minlashga yo'naltirilgan. Xususan, raqamli transformatsiya strategiyasi orqali an'anaviy jarayonlar avtomatlashtirilib, raqamli infratuzilma shakllantirilmoqda; agile menejment yondashuvi esa tashkilotning o'zgaruvchan bozor sharoitiga tez va samarali javob qaytarish qobiliyatini oshiradi. Mijozga yo'naltirilgan strategiyalar foydalanuvchi ehtiyojlarini aniqlash orqali xizmat va mahsulot sifatini oshiradi, raqamli barqarorlik bo'yicha strategiyalar esa axborot xavfsizligi, tizimlarning uzluksiz ishlashi va xavflarni oldindan aniqlashda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat texnologik tayyorgarlikni, balki yuksak boshqaruv kompetensiyalarini, moslashuvchanlikni va doimiy yangilikka intilishni talab etadi. Bu esa



nafaqat iqtisodiy o'sish, balki global raqobatga bardosh bera oladigan yangi avlod tashkilotlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Har bir tashkilot raqamli transformatsiyani amalga oshirishda o'z strategiyasini belgilashi lozim. Raqamli sharoitda keng tarqalgan strategik yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

— Raqamli transformatsiya strategiyasi: korxonaning barcha faoliyat sohalarini raqamli texnologiyalar asosida qayta tashkil etish;

— Platformali biznes modeli strategiyasi: xizmat va mahsulotlarni raqamli platformalar (masalan, Amazon, Alibaba) orqali taklif qilish;

— Mijozga yo'naltirilgan strategiya (customer-centric approach): sun'iy intellekt va tahliliy tizimlar orqali mijoz ehtiyojlarini oldindan bashorat qilish.

Strategiyalarni amalda qo'llash samarali mexanizmlarni talab qiladi. Quyidagi mexanizmlar muhim rol o'ynaydi:

— Raqamli infratuzilmani yaratish: yuqori tezlikdagi internet, bulutli serverlar, avtomatlashtirilgan dasturlar va CRM tizimlari orqali tashkilotning raqamli tayyorgarligini oshirish;

— Xodimlarni raqamli kompetensiyalar asosida qayta tayyorlash: zamonaviy menejment strategiyalarini amalga oshirishda inson kapitali yetakchi omildir;

— Innovatsion loyihalar asosida eksperimentlar o'tkazish (pilot projects): yangi texnologiyalarni kichik hajmda sinab ko'rish va ularning natijalari asosida keng joriy etish;

— Raqamli risklarni boshqarish tizimlarini joriy qilish: kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va texnologik uzilishlar holatlarini oldindan boshqarish.

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi asosida bir qator sohalar raqamlashtirilmoqda. Davlat sektorida "my.gov.uz", "openbudget.uz" kabi platformalar orqali boshqaruvning ochiqligi va samaradorligi oshirilmoqda. Shu bilan birga, xususiy sektorda ham korporativ boshqaruvda ERP, CRM, HRM kabi tizimlar joriy etilmoqda. Misol uchun, "IT Park" rezidentlari tomonidan ishlab chiqilayotgan axborot tizimlari yirik korxonalar faoliyatining raqamli transformatsiyasini jadallashtirmoqda. Bu esa raqamli menejment strategiyalarining bevosita milliy iqtisodiyotda qo'llanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, global kompaniyalarda raqamli menejment — bu raqamli texnologiyalar, ma'lumot tahlili, avtomatlashtirish tizimlari va inson resurslarining uyg'unlashuvi orqali shakllanadigan kompleks boshqaruv modeli hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat texnik infratuzilmani modernizatsiya qilishni, balki korporativ madaniyatni transformatsiya qilish, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va strategik qarorlarni ma'lumotlarga asoslangan holda shakllantirishni ham talab etadi. Zamonaviy biznes muhiti keskin o'zgaruvchan bo'lganligi sababli, raqamli menejment korxonaga bozor talablariga tezkor moslashish, innovatsiyalarni joriy etish va operatsion faoliyatni optimallashtirish imkonini beradi.

Raqamli menejmentning samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

• Raqamli transformatsiya darajasi — jarayonlarning qanchalik raqamlashtirilgani, texnologik infratuzilma va ichki boshqaruv tizimlarining modernizatsiya qilinganlik darajasi.

• Avtomatlashtirish samaradorligi — ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida robototexnika, AI va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish orqali xarajatlarni qisqartirish hamda tezlik va aniqlikni oshirish imkoniyati.

• Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar ulushi — kompaniyada qabul qilinadigan strategik va operatsion qarorlarning qanchalik tahliliy ma'lumotlar va real vaqt monitoringi asosida shakllantirilishi.

• Raqamli xavfsizlik darajasi — kiberxavfsizlik tizimlarining mustahkamligi, ma'lumotlar maxfiyligini himoya qilish va potensial tahdidlarni oldindan aniqlash qobiliyati.

Investitsion samaradorlik (ROI) — raqamli loyihalar va texnologik investitsiyalarning iqtisodiy qaytimi, ularning korxona daromadiga qo'shgan ulushi va samarasi.

Ushbu ko'rsatkichlarni tizimli ravishda tahlil qilish global kompaniyalarga strategik rejalashtirishni yanada takomillashtirish, risklarni oldindan boshqarish va barqaror o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, raqamli ko'rsatkichlarning muntazam monitoringi kompaniyaning bozor pozitsiyasini mustahkamlash, raqobat ustunliklarini shakllantirish va innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, raqamli menejment bugungi global raqobatda kompaniyalarning muvaffaqiyatini belgilovchi strategik omillardan biriga aylanmoqda. Raqamli transformatsiyani puxta rejalashtirish, uni tizimli baholash va izchil amalga oshirish esa kompaniyaga nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki tezkor, moslashuvchan va barqaror rivojlanish modelini shakllantirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2019). How smart, connected products are transforming companies. Harvard Business Review.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, platform, crowd: Harnessing our digital future. W. W. Norton & Company.
3. OECD. (2023). Digital transformation strategies of global enterprises. OECD Publishing.
4. Siemens AG. (2024). Annual report on digitalization and innovation. Siemens Group.
5. Microsoft Corporation. (2024). Digital efficiency and sustainability report.
6. Хамидова, М. Қ. (2023). Raqamli menejment tizimlarining zamonauiy iynalishlari. Iqtisodiy taхlil jurnali, (4), 56–63.
7. Atajanov, A. A. Raqamli transformatsiya sharoitida operasion menejmentni modernizatsiya qilish strategiyalari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17099883>
8. Yuldasheva, S. N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida menejment strategiyalaridan foydalanish mexanizmlari. Raqamli Iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali, 11-son. <https://infocom.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>